

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI

G'aniyeva Guliruxsor Islamovna

Termiz davlat universiteti Botanika kafedrası o'qituvchisi.

G'ulomjonov Eldor Vahob o'g'li

*Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
biologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi.*

Taganova Aziza Axmed qizi

*Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
biologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Maqolada respublika umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitilishini nazorat qilish, ma'lum shart-sharoitlar yaratish, maktab o'quvchilariga yangi bilimlarni berish, olingan yangi bilimlar asosida ko'nikmalarni hosil qilish, shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishlash, o'yin mashqlari hamda rolli o'yinlar kabi noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *maktab, o'yin darslari, o'quvchi shaxsi, biologiya, axborot texnologiyalari, ko'nikmalar.*

Аннотация: *В статье описывается работа в малых школьных группах, визуализация, самостоятельная творческая работа по контролю созданию условий для преподавания естествознания в общеобразовательных школах республики, по обеспечению учащихся новыми знаниями, а также формирование умений на основе новых знаний, рассматривается использование нетрадиционных методов обучения, таких как игровые упражнения и ролевые игры.*

Ключевые слова: *школа, игровые уроки, личность студента, биология, информационные технологии, умения.*

Abstract: *The article describes work in small school groups, visualization, independent creative work to control and create conditions for teaching natural science in secondary schools of the republic, to provide students with new knowledge and the formation of skills based on new knowledge, considers the use of non-traditional teaching methods, such as game exercises and role-playing games.*

Keywords: *school, game lessons, student personality, biology, information technology, skills.*

KIRISH

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashtirishdan tashqari,

zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va ular egallagan bilimlarni o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilish ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; «Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash»ga bog'liqligi ko'rsatiladi. Biologiya fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi ayrim muammolarga duch kelishi muqarrar. Bugungi kunda mamlakatimizda boshqa fanlarga berilayotgani kabi tabiiy fanlarga ham e'tibor juda yuqori. Respublika umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitilishini nazorat qilish va shart-sharoitlar yaratish juda muhim hisoblanadi. Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar aqliy ta'limini rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo'lishi, bilimning sistemali va izchil bo'lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda. Har bir dars o'quvchi uchun yangi axborot hioblanadi. Ayniqsa, yangi o'quv materiallari orqali o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini shakllantirish asosiy ta'lim sifatini ta'minlovchi omildir. O'quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishlash, o'yin mashqlari va rolly o'yinlar kabi noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Mana shularni hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish borasida bugungi kunda juda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuning uchun o'quv jarayonining markazida o'quvchi shaxsi va qadri, ma'naviyati turar ekan, har bir o'qituvchi bu jarayonni samarali va qiziqarli qilib tashkil qila olishi kerak. Shuni e'tiborda tutish kerakki, shaxsga qaratilgan ta'lim, o'quvchining o'quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, uning qiziqish, xohish, talab-istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim, o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, mustaqilligi va erkinligini ta'min etish, qiziqishlari asosida ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'z qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga yo'llash, o'z-o'zini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida darslarda turli o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida darslarni tashkil etish o'quvchilar biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jarayonlarni o'rganish faoliyatini rivojlantiruvchi usullardan biridir. O'yinlar o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish qobiliyatini oshiradi, tez javob topish ko'nikmasini rivojlantiradi, ziyrakligini orttiradi. O'yin darslari o'qitishning faol shakllaridan biridir. O'yin darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarini

orttirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir. O'yin darsning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarni oshirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir. Tashqaridan qaraganda o'yin yengil, betashvish ko'rinishda, aslida boladan maksimum energiya berilishini

aql, sabr toqat, mustaqillik kabi jihatlarni ishga solishni talab etadi. O'yin jarayoni biroz shovqin va tartibsizlik bilan kechgani uchun o'qituvchilar ko'pincha jim o'tirib tinglaydigan, shovqinsiz o'tadigan an'anaviy darslarni ma'qul ko'radi. Biologik o'yinlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ushbu o'yinlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida, o'quvchilarning biologiya faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

"Kim ko'p biladi" o'yini. Bu o'yinni biologiyaning xohlagan mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa, o'sha guruhdan 1 ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

"Xayoliy sayohat" o'yini. Ta'limning bu o'yini biologiya, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin. O'simlik yoki hayvonlar tarqalgan biogeografik viloyatlarga xayolan sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o'zi mustaqil o'sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

Ma'lumki, barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Shuni inobatga olib, Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom mulohaza, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda desak yanglishmaymiz. Xo'sh, interfaol usullarning qanday ma'noga ega va uning ahamiyati qanday. Eng avvalo, interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam berishini anglashimiz lozim. Demakki, Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki - Biologiya - darslarni hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni biologik o'yinlar egallaydi. Biologik o'yinlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari

mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Zikiriyyayev, A.To'xtayev, I.Azimov, N.Sonin.,9-sinf "Biologiya (sitologiya va genetika asoslari)" "Yangiyo'l poligraf servis" 2019.
2. A. G'afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O.Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova.,10-sinf "Biologiya" Sharq 2017.
3. A. G'afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O.Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova.,11-sinf "Biologiya" Sharq 2018.
4. N.Toyloqov va b., 10-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari", "G'afur G'ulom" 2017.
5. N.Toyloqov va b., 11-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari", "O'qituvchi" 2018.
6. Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF 6108-sonli - O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
8. Sulliyeva Suluv Khurramovna, G'aniyeva Guliruxsor Islamovna //Sinf rahbarligi ishlarini tashkil etish metodikasi// //Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar II-qism. 11-12. 10. 2022.
9. Sulliyeva Suluv Khurramovna, G'aniyeva Guliruxsor Islamovna //Sinf rahbarligi ishlarini tashkil etish metodikasi// //Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar: muammo va yechimlar II-qism. 11-12. 10. 2022.
10. Sulliyeva Suluv Khurramovna , G'aniyeva Guliruxsor Islamovna, Tojiyeva Feruza Anvarovna//Effective ways of teaching biology in connection with physical science (in the example of class VII)// Eur. Chem. Bull. 2023, 12(Issue 8),4040-4045